

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA AGROSANOAT MINTAQAVIY-IQTISODIY MAJMUASI RIVOJLANISH DINAMIKASINI BAHOLASH

**Bekchanov Xalmurza Tursinbayevich**

Qoraqalpog‘iston Respublikami solik boshqarmasi boshligi,

ORCID: 0009-0000-1640-9132

E-mail: [xalmurza.bekchanov@soliq.uz](mailto:xalmurza.bekchanov@soliq.uz)

### **Annotatsiya**

Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi agrosanoat iqtisodiy majmuasi tarmoqlarining holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil etiladi. Jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlar eksporti va importi ko‘rsatkichlari o‘rganiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlari, sanoat tarmog‘i resurslarining iqtisodiy naflilik ko‘rsatkichlari hamda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya ko‘rsatkichlari ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi, mahsulot eksporti va importi, sanoat tarmog‘i resurslari, naflilik.

### **Аннотация**

В статье анализируются состояние и тенденции развития отраслей агропромышленного комплекса Республики Каракалпакстан. В частности, проанализировано внедрение современных технологий в аграрный сектор, а также показатели экспорта и импорта продукции. С другой стороны, были рассмотрены основные показатели промышленного сектора по видам экономической деятельности, показатели экономической эффективности ресурсов промышленного сектора, показатели инвестиций в основной капитал по видам экономической деятельности.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, экспорт и импорт продукции, ресурсы производственной сети, эффективность.

### **Abstract**

The article analyzes the state and development trends of the sectors of the agro-industrial economic complex of the Republic of Karakalpakstan. In particular, the introduction of modern technologies into the agricultural sector, indicators of export and import of products are analyzed. On the other hand, the main indicators of the industrial sector by types of economic activity, indicators of economic efficiency of industrial sector resources, and indicators of investment in fixed capital by types of economic activity are considered.

**Keywords:** agriculture, export and import of products, industrial sector resources, efficiency.

## KIRISH

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekistonning yirik qishloq xo‘jaligi va sanoat salohiyatiga ega mintaqalaridan biri hisoblanadi. Hududda agrosanoat majmuasining rivojlanishi mahalliy iqtisodiyotning barqarorligi, aholi bandligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Agrosanoat majmuasi (ASM) boshqaruv organlari oldida raqobatbardoshlik va barqarorlikni ta‘minlovchi biznes jarayonlarini takomillashtirish, agrosanoat hududiy-iqtisodiy tizimlarini rivojlantirish vazifasi turibdi. Shu munosabat bilan agrosanoat mintaqaviy-iqtisodiy majmuasi rivojini ta‘minlovchi asosiy yo‘nalishlarni ajratib olish ahamiyati oshmoqda, bu esa zamonaviy hududiy va tarmoq istiqbollarga mos keladigan darajaga erishishga yordam beradi. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida agrosanoat mintaqaviy-iqtisodiy majmuasi rivojlanish dinamikasini baholash qishloq xo‘jaligi va sanoatni samarali rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda eksport salohiyatini oshirish uchun dolzarb hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonda agrosanoat majmuasini rivojlantirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash sanoati tarmog‘ini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari importini qisqartirish va eksportini oshirish masalalari Abdug‘aniyev A.A. [1], Berkinov B.B. [2], Maxmudov N. [3], Nazarova F. [4] kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan.

Mazkur yo‘nalishlar qishloq xo‘jaligi nazariyasining ilmiy qoidalari asosida ajratiladi, bunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi ishtirokchilari barcha qayta ishlab chiqarish jarayonlari bosqichlarida bozor munosabatlari doirasida rivojlanadi. Bu fikr A. Smit va D. Rikardo kabi klassik iqtisodchilar tomonidan asos solingan siyosiy iqtisod asoslariga tayanadi va keyinchalik I. Ansoff, M. Porter, L. Mallinz kabi xorijiy olimlar tomonidan rivojlantirilgan (strategik boshqaruv, raqobat munosabatlari va bozorni modellashtirish jihatlari), shuningdek, davlat rejalashtirish va tartibga solishning afzalliklarini asoslagan rossiyalik iqtisodchi olimlar tomonidan ham rivojlantirilgan. Ilmiy jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan bunday qarashlarning majmui ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlari rivojining barcha bosqichlarida jamiyat oldida turgan fundamental strategik vazifalar majmuini aks ettiradi.

Shunday qilib, I. Ansoff strategik rejalashtirishni tashqi muhit bilan o‘zaro ta‘sirni saqlab qolish bilan bog‘liq bo‘lgan va bunda ichki imkoniyatlarga muvofiq ravishda rivojlanish maqsadlariga erishish hamda tashqi talablarga ochiq bo‘lib qolish imkonini beradigan boshqaruv obyektining missiyasi va vazifalarini asoslash bilan bog‘liq faoliyat sifatida belgilagan [5]. Zamonaviy konseptual strategik yondashuvlar raqobatni hududiy-iqtisodiy tizimlarning salohiyati va uning imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv jarayonining bevosita omili sifatida qabul qilishga asoslangan [6].

## METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston Respublikasi agrosanoat majmuasini tahliliy o‘rganish asosida uning iqtisodiy samaradorligini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti va importi ko‘rsatkichlarini vertikal va gorizonttal tahlil asosida baholab, ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlashdan iborat. Shunga ko‘ra, zamonaviy agrosanoat majmuasini samarali tashkil etishning afzalliklari va kamchiliklari, uning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishdagi o‘rni tahlil qilinadi, uni yanada rivojlantirish va shakllantirish yo‘nalishlari ilmiy mushohada usullari asosida ko‘rib chiqiladi. Mavzuni ilmiy o‘rganish, statistik tahlillar, mantiqiy yondashuv, tahlil va tadqiqot jarayonida turli xil adabiyotlar hamda maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekistonning muhim iqtisodiy va geografik mintaqasi bo‘lib, o‘ziga xos tabiiy resurslar va iqtisodiy salohiyatga ega. Respublikaning iqtisodiy rivojlanishida agrosanoat majmuasi muhim o‘rin tutadi. Qoraqalpog‘iston iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligi, baliqchilik va sanoatning ayrim tarmoqlariga asoslangan. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi asosiy omillar quyidagilardir:

- Suv resurslari. Orol dengizi va Amudaryo daryosining mavjudligi tufayli suv xo‘jaligi va baliqchilik sohalari uchun katta imkoniyatlar yaratiladi.
- Yer resurslari. Respublikaning katta qismi qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli yerlar bilan ta‘minlangan.
- Mineral xomashyo resurslari. Tuz, gips, neft va gaz kabi foydali qazilmalar mavjudligi sanoatning rivojlanishi uchun muhim zamin yaratadi.
- Mehnat resurslari. Respublikada mehnatga layoqatli aholi sonining ko‘pligi iqtisodiyotning turli sohalarida ishchi kuchi bilan ta‘minlash imkonini beradi.

Qoraqalpog‘istonning agrosanoat majmuasi paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik va baliqchilik kabi tarmoqlarni o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillarda agrosanoat majmuasini modernizatsiya qilish, sug‘orish tizimlarini takomillashtirish hamda yangi texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishida muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Biroq agrosanoat majmuasining rivojlanishida bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, suv tanqisligi, tuproqning sho‘rlanishi, shuningdek, eskirgan texnika va texnologiyalardan foydalanish holatlari bu soha rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining iqtisodiy rivojlanishi tez sur‘atlar bilan kechmoqda. Bu holat mazkur sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi, xususan, yalpi ichki mahsulotdagi o‘rnining yuqoriligi bilan izohlanadi. Biz tomonidan mazkur tarmoqdagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda vertikal va gorizonttal tahlil usullaridan foydalanilgan.

1-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘rganilayotgan 2014–2023-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmoqlarida o‘sish kuzatilgan. O‘rtacha o‘sish koeffitsiyenti 1,20 ga teng bo‘lgan. Bu esa, o‘z navbatida, shuni anglatadiki, ushbu davrda mamlakat yalpi ichki mahsuloti o‘rtacha o‘sish

ko'effitsiyenti ham 1,22 ga teng bo'lgan. Qolaversa, ushbu o'rganilayotgan davrda barcha ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasining umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lganini kuzatish mumkin (1-jadval).

**1-jadval**
**Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari [7]**

Yillar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	O'rtacha o'sish ko'effitsiyenti
YahM (mlrd. so'm)	5433,8	6703,8	8568,3	13292,6	18761,0	23392,7	25523,4	29738,2	35541,6	39430,3	1,22
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd. so'm)	2659,3	3452,1	4062,9	4977,3	6995,5	8769,3	10532,2	12340,9	14374,0	16390,8	1,20
Sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd. so'm)	1717,2	2 387,6	4265,7	6773,3	10 911,9	12 736,1	13 981,3	16 630,4	17624,7	17791,1	1,26
Transport va aloqa (mlrd. so'm)	122,0	144,5	187,2	300,1	380,3	399,7	434,3	478,5	573,9	661,4	1,18
Xizmatlar sohasi (mlrd. so'm)	2 148,1	2 550,3	3 100,5	3 611,3	4 600,2	5 671,8	6 520,3	8 458,4	10 595,3	12 875,6	1,20
Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	1 053,5	1 219,3	1 171,8	1 398,8	2 182,7	3 315,4	3 992,5	4 480,6	5 272,4	5 315,9	1,18
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida bandlar soni (ming kishi)	102,6	109,1	122,3	153,7	155,5	155,7	147,5	137,5	136,3	157,6	1,04

2-jadvalda Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'ining asosiy rivojlanish ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, unda mintaqadan eksport qilingan hamda mintaqaga import qilingan oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha ma'lumotlar aks ettirilgan. Jumladan, shuni ta'kidlash kerakki, hali ham iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholi ko'rsatkichi aynan qishloq xo'jaligi tarmog'ida yuqoriligicha saqlanib qolganini ko'rish mumkin.

2014–2023-yillar davomida mintaqadan eksport qilingan oziq-ovqat mahsulotlari hajmining o'rtacha o'sish ko'effitsiyenti 1,06 ga teng bo'lgan. Mintaqaga import qilingan oziq-ovqat mahsulotlari hajmining o'rtacha o'sish ko'effitsiyenti esa 1,32 ga teng. Bu esa so'nggi yillarda import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi eksport hajmiga nisbatan 26 foizga yuqoriligini ko'rsatadi (2-jadval).

**2-jadval**
**Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'ining asosiy rivojlanish ko'rsatkichlari [7]**

Yillar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	O'rtacha o'sish ko'effitsiyenti
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot hajmi (mlrd. so'm)	1 717,2	2 387,6	4 062,9	4 977,3	6 995,5	8 769,3	10 532,2	12 340,9	14 374,0	16 390,8	1,25

Yillar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	O'rtacha o'sish koeffitsiyenti
<b>Ekspord qilingan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi (mln. AQSH dollar)</b>	-	-	26605,0	26096,0	30 747,7	40660,0	48249,8	47456,5	39963,4	42068,7	1,06
<b>Import qilingan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi (mln. AQSH dollar)</b>	-	-	4662,7	3050,4	11 521,5	15851,7	27000,3	29733,4	28721,0	42223,6	1,32

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi keltirilgan. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar miqdori 2014–2023-yillar davomida 5,46 martaga oshganini ko'rish mumkin.

### 3-jadval

#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (mlrd. so'm) [7]

	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
<b>Jami</b>	<b>3 990,6</b>	<b>6 021,2</b>	<b>3 778,3</b>	<b>2 822,0</b>	<b>6 757,8</b>	<b>8 750,6</b>	<b>7 089,8</b>	<b>8 110,7</b>	<b>10 254,0</b>	<b>12 959,2</b>
<i>Shu jumladan:</i>										
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	133,1	140,2	167,0	234,4	349,6	1 328,2	1 457,6	1 394,8	923,7	727,2
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash	2 506,9	4 230,8	464,8	629,0	1 354,0	1 694,5	1 732,9	1 558,5	2 269,8	3 453,1
Ishlab chiqaradigan sanoat	108,1	109,1	1 803,6	331,7	585,3	1 307,0	592,7	593,5	902,7	2 017,2
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	140,3	122,6	51,5	43,3	2 084,4	1 465,9	661,9	410,4	526,4	305,0
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	60,2	94,6	70,0	94,3	104,1	204,6	175,2	218,7	319,8	534,5
Qurilish	33,6	111,7	155,1	192,1	136,1	107,4	318,8	667,8	896,9	798,9
Tashish va saqlash	225,9	157,5	242,0	307,6	266,1	512,8	228,1	916,2	1 280,9	1 862,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,5	10,7	8,3	8,6	8,0	16,3	11,4	17,4	18,9	76,9
Boshqa faoliyat turlari	774,0	1 044,0	816,0	981,0	1 870,2	2 113,9	1 911,2	2 333,4	3 114,9	3 184,4

Tahlillarga ko'ra, 2014–2023-yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (yillik o'rtacha) ishlab chiqarish sanoatida 2014-yilga nisbatan 2023-yilda qariyb 18,7 martaga oshgan. Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida bu ko'rsatkich 2014-yilga nisbatan 2023-yilda qariyb 8,9 martaga oshgan. Bundan tashqari, qurilish tarmog'iga o'rganilayotgan 2010–2023-yillar oralig'ida qariyb 23,8 martaga o'sish kuzatilgan.

**4-jadval**
**Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2014-2023-yillarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi bo‘yicha ma‘lumot (mlrd. so‘m) [7]**

Yillar	Jami sanoat mahsulotlari hajmi	Shundan, ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari hajmi	Shu jumladan, oziq-ovqat sanoati mahsulotlari hajmi
2014	1 717,2	1 153,8	439,4
2015	2 387,6	1 778,6	763,4
2016	4 265,7	3 614,8	860,4
2017	6 773,3	6 040,3	933,2
2018	10 911,9	9 838,8	1 186,1
2019	12 736,1	11 023,7	1 541,1
2020	13 981,3	12 193,6	1 993,8
2021	16 630,4	14 268,6	2 118,7
2022	17 624,7	15 187,6	2 461,9
2023	17 791,1	15 219,5	2 937,1

**5-jadval**
**Yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmining mulkchilik shakllari bo‘yicha taqsimlanishi (ming tonna) [7]**

	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
<i>Fermer xo‘jaliklari</i>										
Don ekinlari	141,1	189,6	216,9	216,1	168,3	238,8	222,8	213,2	250,9	253,9
Kartoshka	11,6	11,3	13,5	14,5	18,8	25,1	26,2	29,0	32,4	32,9
Sabzavotlar	85,8	84,1	86,9	69,6	73,9	96,8	103,3	111,9	126,8	131,2
Oziq-bop poliz ekin	52,4	52,4	60,9	64,6	57,5	67,5	73,2	83,1	92,2	98,6
Go‘sh	1,8	1,9	2,0	2,4	2,8	3,4	3,8	4,8	4,9	4,8
Sut	13,5	13,8	14,4	15,7	17,8	20,5	24,7	26,1	27,4	31,4
Tuxum (mln.dona)	11,1	11,2	12,4	13,3	18,8	24,5	25,7	30,7	33,1	33,2
<i>Dehqon xo‘jaliklari</i>										
Don ekinlari	70,5	69,2	69,8	71,5	71,3	42,8	39,3	37,1	31,9	29,9
Kartoshka	31,0	34,4	38,5	46,3	50,8	57,7	58,4	59,8	60,1	62,5
Sabzavotlar	130,7	147,5	157,1	172,3	176,0	171,8	175,9	180,7	184,7	191,8
Oziq-bop poliz ekin	51,4	59,2	64,6	68,3	75,1	76,4	75,3	77,5	77,3	79,5
Go‘sh	80,1	85,7	92,1	98,1	101,8	102,7	106,4	109,9	113,9	116,7
Sut	279,2	304,3	328,3	345,2	357,3	362,6	376,0	388,0	401,5	410,3
Tuxum (mln.dona)	158,5	186,5	218,1	241,1	264,0	265,0	277,0	280,8	284,7	292,7
<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>										
Don ekinlari	5,9	7,7	8,5	8,8	7,3	11,8	15,8	20,8	29,4	33,6
Kartoshka	2,1	2,0	0,6	0,6	0,7	0,8	1,1	0,6	1,1	1,0
Sabzavotlar	11,1	9,7	12,4	3,4	3,2	5,3	7,4	8,9	7,7	10,3
Oziq-bop poliz ekin	2,2	2,2	2,1	2,1	1,8	2,9	4,1	4,1	4,0	5,4
Go‘sh	0,8	0,8	1,0	0,8	0,6	0,8	0,9	1,7	2,1	2,3
Sut	3,8	4,0	4,2	3,2	2,9	3,2	4,1	4,8	5,5	6,0
Tuxum (mln.dona)	16,4	9,0	5,5	5,7	24,5	32,9	38,6	68,3	69,2	72,0

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha jami sanoat mahsulotlari hajmi 17 791,1 mlrd so‘mni tashkil etgan. Shundan 15 219,5 mlrd so‘m (jami sanoat mahsulotlarining 85,5 %) ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari, 2 937,1 mlrd so‘m (jami sanoat mahsulotlarining 16,5 %) esa oziq-ovqat sanoati mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Umumiy statistik tahlillarga ko‘ra, 2014–2023-yillar mobaynida respublika bo‘yicha jami sanoat mahsulotlari hajmi 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 10,4 martaba oshgan. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari hajmi

ham shu davrda 6,8 martaga oshgan. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi umumiy ko'rsatkichlariga nisbatan yuqoriligicha saqlanmoqda (4-jadval).

5-jadvalda 2014–2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmining mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlanishi keltirilgan. Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra, tahlil qilinayotgan o'n yil davomida fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori 27,3 foizdan 30,8 foizga oshganini ko'rish mumkin. Shu davr mobaynida dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori 69,0 foizdan 62,3 foizga kamaygan, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori esa 2014–2023-yillar davomida 3,6 foizdan 6,9 foizga ortganini kuzatish mumkin (5-jadval).

6-jadvalda 2023-yil yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari kesimida iqtisodiy ko'rsatkichlar keltirilgan bo'lib, ushbu jadval asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi ikki asosiy – shimoliy va janubiy iqtisodiy mintaqalarga shartli ravishda ajratildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasini janubiy va shimoliy iqtisodiy rayonlarga ajratish zarurati mavjud, chunki har bir hududning tabiiy-iqlim sharoiti, resurslari hamda iqtisodiy faoliyati turlicha rivojlangan. Bu tafovutlar hududlarning iqtisodiy yo'nalishlari va salohiyatini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jadval tahlilidan ko'rinishicha, shimoliy mintaqaga Nukus shahri, Nukus tumani, Xo'jayli tumani, Taxiatosh shahri, Kegeyli tumani, Amudaryo tumani, Beruniy tumani, Ellikqal'a tumani hamda Chimboy tumani kiradi.

Janubiy hududlarga esa Amudaryoga yaqin joylashgan tumanlar kiradi. Ushbu hududlar uchun xos jihatlar shundan iboratki, qishloq xo'jaligi tarmog'i, xususan, Amudaryo suvlari hisobiga paxtachilik va g'allachilik rivojlangan. Sabzavot va mevachilik yo'nalishlari ham yaxshi taraqqiy etgan. Sanoat tarmog'ida esa neft va gaz qazib olish, qayta ishlash markazlari, shuningdek qurilish materiallari ishlab chiqarish yo'nalishlari faol rivojlangan.

Agrosanoat majmuasining shimoliy mintaqasi iqtisodiy tizimiga Qung'iroq tumani, Mo'ynoq tumani, Shumanay tumani, Qonliko'l tumani, To'rtko'l tumani, Qorauzaq tumani hamda Taxtako'pir tumani kiradi. Ushbu hududlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyosh energiyasi asosida issiqxona xo'jaliklarining rivojlanishi, kam suvli yerlarda chorvachilik va qo'ychilik faoliyatining yuritilishi ta'kidlanadi.

Sanoat tarmog'ida esa tuz qazib olish va uni qayta ishlash, turli mineral resurslarni qazib olish, ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Ayniqsa, Orol dengizining qurib borayotgan qismi va hunarmandchilik markazlari bu yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega.

Jadval tahliliga ko'ra, agrosanoat majmuasining janubiy mintaqasiga kiruvchi tumanlar umumiy maydoni 14,64 ming kv.kmni tashkil etadi. Ushbu tumanlar iqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagicha: umumiy maydonga nisbatan – 8,9 %, aholi soni bo'yicha – 69,5 %, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot bo'yicha – 68,5 %, yalpi hududiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha – 67,7 %, yalpi hududiy sanoat mahsulotlari bo'yicha – 72,4 %, va jami qishloq xo'jaligi tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar

qiymati bo'yicha – 68,0 % ni tashkil etadi. Bu esa agrosanoat majmuasining janubiy mintaqasi Qoraqalpog'iston iqtisodiy tizimida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi (6-jadval).

Agrosanoat majmuasi shimoliy mintaqa iqtisodiy tizimiga kiritilgan tumanlar iqtisodiy ko'rsatkichlari esa quyidagicha bo'lib, jumladan maydoni umumiy maydonga nisbatan 91,9 foizni, aholi soni esa umumiy aholining 30,5 foizini, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning 31,5 foizini, yalpi hududiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 32,3 foizini, yalpi hududiy sanoat mahsulotlarining 27,6 foizini va jami qishloq xo'jaligi tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar qiymatining 32,0 foizini tashkil etayotganligini ko'rish mumkin. Mazkur tahlil natijalari ham shuni ko'rsatadiki shimoliy mintaqa iqtisodiy tizimiga kiritilgan tumanlar maydoni 10,2 barobarga katta bo'lishiga qaramasdan qolgan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'rtacha 2,2 martaga janubiy iqtisodiy rayon ko'rsatkichlari yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

### 6-jadval

#### 2023-yil yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlari [7]

№	Tumanlar	Maydoni (ming.km2)	Aholi soni (ming kishi)	YAXM ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm)	Yalpi hududiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm)	Yalpi hududiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm)	Qishloq xo'jaligi tarmog'iga kiritilayotgan investitsiyalar miqdori mlrd.so'm)
<b>Agrosanoat majmuasi janubiy mintaqa iqtisodiy tizimi</b>							
1	Nukus shahri	0,22	339,2	1,2	0,65	0,9	48,4
2	Nukus tumani	0,94	53,9	0,6	0,33	0,47	48,0
3	Xo'jayli tumani	0,55	128,7	0,55	0,34	0,22	23,4
4	Taxiatosh shahri	0,18	76,8	0,5	0,31	0,23	41,3
5	Kegeyli tumani	0,92	74,8	0,3	0,21	0,13	15,0
6	Amudaryo tumani	1,02	212,1	0,4	0,27	0,16	48,3
7	Beruniy tumani	3,95	205,1	0,35	0,24	0,14	137,0
8	Ellikqala tumani	5,42	171	0,45	0,3	0,19	195,2
9	Chimboy tumani	1,44	115,7	0,5	0,33	0,21	50,5
<b>Jami</b>		<b>14,64</b>	<b>1377,3</b>	<b>4,85</b>	<b>2,98</b>	<b>2,65</b>	<b>607,1</b>
<b>Agrosanoat majmuasi shimoliy mintaqa iqtisodiy tizimi</b>							
1	Qung'iroq tumani	76,0	136	0,3	0,19	0,15	24,1
2	Mo'ynoq tumani	37,88	33,6	0,2	0,14	0,1	60,4
3	Shumanay tumani	0,78	58	0,28	0,17	0,13	39,2
4	Qonliko'l tumani	0,74	53,8	0,35	0,2	0,14	15,7
5	To'rtko'l tumani	7,48	228,8	0,45	0,3	0,19	95,4
6	Qorauzaq tumani	5,89	54,4	0,25	0,15	0,12	21,2
7	Taxtakopir tumani	21,12	38,9	0,4	0,27	0,18	29,5
<b>Jami</b>		<b>149,89</b>	<b>603,5</b>	<b>2,23</b>	<b>1,42</b>	<b>1,01</b>	<b>285,5</b>

Fikrimizcha, agrosanoat majmuasi korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirish orqali uni yanada rivojlantirish uchun uning mavjud holatini o'rganish, natijalarni taqqoslash hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillarni miqdoriy jihatdan ekonometrik modellar asosida tahlil qilish lozim.

Jahon tajribasidan ma'lumki, sanoat ishlab chiqarishning moddiy asosi hisoblangan va ishlab chiqarish hajmiga to'g'ridan-to'g'ri yuqori ta'sir qiluvchi asosiy omillar bu – kapital va mehnat resurslaridir. Kapital va mehnat omillari ta'sir

doirasining ratsional nisbatlari ishlab chiqarish funksiyasi yordamida aniqlanadi. Ya'ni, ishlab chiqarish funksiyasi – sanoat ishlab chiqarish natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning miqdoriy ta'sirini ifodalaydi.

Agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligini baholashda yuqorida keltirilgan (baholab o'tilgan) usullardan ma'lum bo'lishicha, asosiy ko'rsatkich – bu natija, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (daromad) hisoblanadi. Shu bois, agrosanoat majmuasi korxonalari mahsulotlari hajmini natijaviy omil sifatida qabul qilish mumkin.

### 7-jadval

#### Agrosanoat majmuasining asosiy ko'rsatkichlari va ishlab chiqarish funksiyasi qiymatlari [7]

Yillar	Q (mlrd. so'm)	K (mlrd. so'm)	L (ming kishi)	Q'	K'	L'	Qhis.
2010	5521,5	225,3	84,8	8,62	5,42	4,44	6601,4
2011	7305,8	330,9	84,9	8,90	5,80	4,44	8804,2
2012	8610,6	372,9	85,4	9,06	5,92	4,45	9568,7
2013	11373,7	469,9	85,4	9,34	6,15	4,45	11386,6
2014	14387,2	618,3	81,8	9,57	6,43	4,40	14678,5
2015	18511,6	622,8	84,4	9,83	6,43	4,44	14258,3
2016	22400,5	651,8	89,1	10,02	6,48	4,49	13899,8
2017	23217,7	1181,3	91,4	10,05	7,07	4,52	21135,8
2018	25256	2685,5	95,6	10,14	7,90	4,56	37305,6
2019	35337,3	3729	106,8	10,47	8,22	4,67	42262
2020	42314,9	4472,8	113,9	10,65	8,41	4,74	45137,6
2021	48643,3	4932	111,2	10,79	8,50	4,71	49882,6
2022	57547,3	4202,6	110,5	10,96	8,34	4,71	44534,2
2023	65174,7	6522,9	111,6	11,08	8,78	4,71	61313

Demak, agrosanoat majmuasi korxonalari mahsulotlari hajmiga mazkur tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar (kapital) va tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslarining ta'sirini miqdoriy baholashda, asosiy model sifatida eng keng tarqalgan Kobb–Daglas modeli (Cobb–Douglas production function)dan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. U quyidagicha ifodalanadi:

$$Q = AK^\alpha L^\beta \quad (1)$$

bu yerda,

$Q$  – agrosanoat majmuasi mahsulotlari hajmi,  $K$  – kapital,  $L$  – mehnat resursi,  $A, \alpha, \beta$  modelning noma'lum parametrlarining qiymatlari eng kichik kvadratlar usuli yordamida topiladi. Buning uchun (1) ishlab chiqarish funksiyasining har ikkala tomoni ham logarifmlanadi va quyidagi ko'rinishda yoziladi.

$$\ln(Q) = \ln(A) + \alpha \ln(K) + \beta \ln(L) \quad (2)$$

(2)-funksiya kattaliklarini shartli belgilash asosida quyidagicha belgilab olinadi.

$$\ln(Q) = Q', \quad \ln(A) = A', \quad \ln(K) = K', \quad \ln(L) = L' \quad (3)$$

va ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Q' = A' + \alpha K' + \beta L' \quad (4)$$

2010-2023-yillarda agrosanoat majmuasi mahsulotlari hajmi ( $Q$ ), oziq-ovqat sanoatiga kiritilgan investitsiyalar ( $K$ ) va agrosanoat majmuasida band bo'lganlar ( $L$ ) bo'yicha

statistik ma'lumotlar asosida eng kichik kvadratlar usuli orqali 4-model parametrlari aniqlandi.

7-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, (2.2.4) ishlab chiqarish funksiyasi parametrlari  $A=15009$ ,  $\alpha=0,75213$ ,  $\beta=-1,1026$  qiymatlarga tengligi aniqlandi va quyidagi model tuzildi.

$$Q = 15009 \alpha K^{0,75213} L^{-1,1026} \quad (5)$$

Baholash natijalariga ko'ra, mazkur modelning approksimatsiya xatoligi ( $MAPE < 5\%$ ) qabul qilinadigan qiymatdan  $A$   $1,66 < 5$  kichik, F- mezonni bo'yicha hisoblangan qiymat  $F_{jadval}$  qiymatidan yuqoriligi,  $t_{hisob} > t_{jadval}$  bo'lib, model statistik jihatdan ahamiyatli, Darbin-Uotson mezonni bo'yicha  $1,5 < DW = 1,9 < 2,5$  tenglik bajarildi (avtokorrelyatsiya mavjud emas), determinatsiya koeffitsiyenti  $R^2 = 0,92$  ga teng bo'lib, model ishonchli deb baholandi.

Mazkur modelga asosan, kapital sarfining 1 birlikka ko'payishi agrosanoat majmuasi korxonalarini mahsulotlari hajmining 0,75213 birlikka oshishini, mehnat sarfining 1 birlikka ko'payishi esa ushbu mahsulotlar hajmining -1,1026 birlikka kamayishini ko'rsatdi.

Mehnat resursining agrosanoat majmuasi korxonalarini mahsulotlari hajmiga bunday teskari ta'sirini quyidagicha izohlash mumkin: 2010–2023-yillar mobaynida agrosanoat majmuasi korxonalarini mahsulotlari hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ammo korxonalarda band bo'lganlar soni 2010–2020-yillarda oshgan bo'lsa-da, 2021–2023-yillarda kamayish kuzatilgan. Shu sababli, mehnat omilining natijaviy ko'rsatkichiga ta'siri teskari bo'lgan.

Bunday hollarda kapital va mehnat omillari qaytimi ortishi yoki kamayishiga qarab, ularni o'zaro almashtirish mumkin. Amaliyotda bunday almashinuv texnologik o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy va agrosanoat majmuasi istiqbolda rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlarni davom ettirish zarur:

– Suv resurslarini samarali boshqarish, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish va suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish.

– Tuproqning meliorativ holatini yaxshilash, sho'rlanish va botqoqlashishga qarshi kurash choralarini kuchaytirish.

– Agrosanoat majmuasini diversifikatsiya qilish, paxtachilik va g'allachilikdan tashqari boshqa ekinlar yetishtirish hajmini oshirish.

– Sanoat tarmog'ini rivojlantirish, mavjud mineral resurslar asosida yangi sanoat obyektlarini tashkil etish.

– Agrosanoat majmuasi infratuzilmasini rivojlantirish: yo'l, energetika va aloqa tizimlarini takomillashtirish.

– Qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni keng joriy etish.

– Eksport salohiyatini oshirish, qishloq xo'jaligi hamda sanoat mahsulotlarini xorijiy bozorlarga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish.

Qoraqalpog'iston Respublikasining agrosanoat majmuasini rivojlantirish uchun

katta salohiyat mavjud. Biroq, ushbu salohiyatdan to‘liq va samarali foydalanish uchun yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlarda tizimli va izchil ishlarni amalga oshirish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Abdug‘aniev A., Abdug‘aniev A. A. – qishloq xo‘jaligi iqtisodiyati — (darslik) — T.: TDIU, 2006 – 302 bet.
2. Berkinov B.B., Axmedov U.K. Aholini oziq-ovqat maxsulotlariga bo‘lgan istemol talablarining tahlili.
3. Махмудов Н. (2020). Перспективы развития экспорта пищевой промышленности в Узбекистане. Экономика И Образование, 1(6), 19-23.
4. Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O‘zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun diss. — T.: 261 b.
5. Ансофф, И. Стратегическое управление / И. Ансофф. – Москва : Экономика, 1989. – 519 с.
6. Портер, М. Конкуренция: пер. с англ. / М. Портер. – Москва : Вильямс, 2005. – 608 с.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tovonidan tuzilgan.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, mart, 3-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**